

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

## HODI ZARIFOV VA ERGASH JUMANBULBUL O‘G‘LI IJODI

Muharram KAMOLOVA,  
O‘zRFA. O‘zbek tili, adabiyoti va folklori  
instituti tayanch doktranti  
[muharramkamolova2007@gmail.com](mailto:muharramkamolova2007@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290780>

**Annotasiya:** Mazkur maqolada Ergash Jumanbulbul o‘g‘li repertuari, xususan Hodi Zarifovning “Bulbul taronalari” to‘plamining yaratilishidagi xizmatlari, baxshi repertuaridagi dostonlar va ularning yozib olinish tarixi, termalar badiiyati va uning o‘rganilishi haqida so‘z boradi. Ergash shoir ijodining o‘zbek folklori tarixida qolishida olimning xizmatlari, Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining xalq dostonlari ijrosidagi o‘ziga xos usullari. Dostondagi motivlarni ochib berishda folklorshunosning pozitsiyasi hamda fikrlarga baho berishda to‘plamdagi fikrlar va misollar orqali dalillanadi.

**Kalit so‘zlar:** doston, mahorat, baxshi, variant, versiya, vazn, she‘riy qism, nasriy qism, badiiy tasvir, motiv, takrir, tajnis.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается репертуар Эргаша Джуманбюльбюль оглы, в частности, заслуги Ходи Зарифова в создании сборника «Бюльбюль тароналари», эпосы в репертуаре бахши и история их записи, искусство термара и его изучение. Отмечены заслуги ученого в сохранении творчества поэта Эргаша в истории узбекского фольклора, а также уникальные методы Эргаша Джуманбулбул оглы в исполнении народных эпосов. Позиция фольклориста в раскрытии мотивов эпоса и оценке идей подтверждается идеями и примерами в сборнике.

**Ключевые слова:** эпос, мастерство, бахши, вариант, версия, метр, поэтическая часть, прозаическая часть, художественный образ, мотив, повтор, таджнис.

**Abstract:** This article discusses the repertoire of Ergash Jumanbulbul oglu, in particular, the merits of Hodi Zarifov in the creation of the collection "Bulbul Taronalari", the epics in the Bakhshi repertoire and the history of their recording, the art of terms and their study. The merits of the scientist in the preservation of the work of the poet Ergash in the history of Uzbek folklore, the unique methods of Ergash Jumanbulbul oglu in the performance of folk epics. The position of the folklorist in revealing the motifs in the epic and evaluating the ideas is evidenced by the ideas and examples in the collection.

**Keywords:** epic, skill, Bakhshi, variant, version, weight, poetic part, prose part, artistic image, motif, repetition, tajnis.

Xalq dostonlarida butun xalq taqdiri, uning tarixi, madaniyati, orzu-armonlari mujassamlashgan bo‘ladi. Zero, akademik T.Mirzayev ta’kidlaganidek, “Xalq dostonlari qadimiyatning buyuk bir ehsoni, o‘zlari yaratilgan davrning umumiy dunyoqarashi, ayni paytda, jonli an’anaviy ijod va ijro sharoitlarida xalq ruhining obyektiv holatini davrlararo ifodalab, mazmun va shakl jihatdan goh kengayib, goh torayib, ajdodlardan avlodlarga og‘zaki ravishda yetib kelgan adabiy yodgorliklar

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

hisoblanadi. Ular xalq milliy tarixining afsonalar qobig‘iga o‘ralgan qahramonlik voqealarining o‘ziga xos badiiy ifodasidir”[4.21.]. Darhaqiqat, dostonlarda har bir baxshi individualligi bilan birga xalq tafakkurining badiiy ifodasi o‘z aksini topadi. Doston har qancha badiiy mazmunga ega bo‘lmasin, unda xalq hayoti, turmush -tarzi, tarixi va madaniyati ifodalanadi. Ma’lumki, dostonlarni xalqning eng so‘zga chechan, dunyo ko‘rgan, donishmand baxshilar kuylaydi. Xalq orasida mashhur bo‘lgan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Po‘lkan shoir, Berdi baxshi, Islom shoir, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Abdulla Nurali o‘g‘li, Saidmurod Panoh o‘g‘li, Ergash Jumanbul o‘g‘li kabi shoirlarning ijodi, an’anaviy ijrochili va repertuarining yozib olinishi folklorshunoslikda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. XX asrning 30-yillarida butun mamalakat miqyosida ijod qilayotgan baxshilarni aniqlash va repertuarini yozib olish ishlari boshlanib ketgan, binobarin baxshilar sardori sanalgan Ergash Jumanbulbul repertuari o‘zining originalligi va badiiy qiymati bilan folklorshunoslarning alohida e’tiboriga sazovor bo‘lgan.

Ergash shoirning aynan o‘zbek folklorshunosligiga kirib kelishi bevosita Hodi Zarif nomi bilan bog‘liq. Hodi Zarifov Ergash Jumanbulbul ijodini ilk bor tadqiq qilish bilan birga shoirning repertuarini dastavval yozib olgan olim sifatida ahamiyatga ega. To‘ra Mirzayev 1969-yilgi xotiralarni eslar ekan 1928-yildan boshlab o‘zi qadrlagan xalq baxshilaridan ularning repertuarlarini yozib olishga kirishmaganidan qattiq afsuslanadi va 1936-yilning kech kuzidan bu ishga kirishganini eslaydi: “1936-yildan boshlab bunday loqaydlik va e’tiborsizlikni bir oz tuzatganday bo‘ldim. O‘sha yilning kech kuzida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Po‘lkan shoir, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Abdulla shoirlarning qishloqlariga borib, ularni Toshkentga olib keldim”. [5.190.] Darhaqiqat, olim aynan shu yildan boshlab o‘zbek folklori tarixini yaratishga kirishadi. Har bir baxshi ijodidagi termalardan tortib, yirik xalq dostonlarini yozib olishga kirishdi, lekin bu ishlarning izchil davom etmagani olimni tashvishga soladi. O‘z davrining ahvoli, ijodkor bilan bog‘liq bo‘lmagan vaziyatlar bu xazinalarning yozib olinishi kechiktiradi. Lekin olim Ergash ota haqida xotirlar ekan baxshi repertuaridagi tarjimayi holi va zamon haqidagi termalar, dostonlarni yig‘ib yaxlit bir to‘plam sifatida shakllantirish niyati borligini ma’lum qiladi: “1936-1937 yillar qishining uzoq kechalarida o‘z hovlimda yeti ota-bobosi dostonchi o‘tgan bu ulkan xalq san’atkori bilan suhbatlar qurar ekanman, ilmiy-ijodiy rejamda bir niyat tug‘ildi: Ergash otadan qalamga olingan yoki o‘zi yozib bergan barcha terma va dostonlarning hammasini ko‘p jildli bir kulliyot sifatida nashrga tayyorlashni o‘z oldimga maqsad qilib qo‘ydim”. [5.190.]. Ko‘rinadiki, folklorshunos

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

olim va baxshi orasida juda ko‘plab ijodiy-ilmiy munosabatlar mavjud bo‘lib olimning, balki, do‘stona rishta ham mavjud bo‘lgan. Shu bois H, Zarifov E. Jumanbulbulni “ota” deb murojaat qilgan va olimning shakllanishida Ergash shoir kabi baxshilarning o‘rni yuksak bo‘lgan va olim ularni ustoz sifatida e‘tirof etgan: “Ergash shoir bilan Fozil otani ustoz maqomidagi dono mo‘ysafidlar sifatida tilga olgan edim. Mening Hodi Zarif bo‘lib shakllanishimda bu buyuk insonlarning ta’sir kuchi, ulardan yozib olingan dostonlar sehri beistisno katta ahamiyatga ega”. Akademik

T. Mirzayevning ayni paytda shoirning olimga nisbatan hurmati va e‘tibori cheksiz bo‘lgan. Ergash shoirning “Shoirlarga rahbar Hodi” termasi fikrimizni yaqqol dalillaydi.

Bizlar suxanvarlardirmiz,  
Shoirlarga rahbar Hodi,  
Toshkand elda o‘z xiliga,  
Hammasiga sarvar Hodi.

Ishchilarning to‘rasidir,  
Rost odamning oshnasidir,  
O‘zi yigit barnosidir,  
Har ishdan xabardor Hodi

Ko‘rsang suxanning sarrofi,  
Ishchilarning boinsofi.  
Fahmi yugruk obi-tobi  
Beadad suxanvar Hodi.

Hodi elning bilimdoni,  
Hodiday er yigit qani?!  
Yigitlarning isfihoni,  
Keskir, o‘tkir xanjar Hodi![4.264.]

Hodi Zarifov folklorshunos sifatida shoir bilan suhbatlashar ekan, uning ko‘ngliga yo‘l topgan, e‘tiborini qozongan, shu bois baxshi olimni “shoirlar rahbari, ishchilarning to‘rasi” sifatida ta’riflaydi. Bu haqda folklorshunos olima

B. Mirzayeva shunday deydi: “Hodi Zarifovning o‘zbek xalqi madaniyati xazinasiga qo‘shgan eng katta ulkan hissasi xalq baxshi-shoirlarini

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

aniqlaganligidadir. Atoqli olim mahoratli baxshilar kuylab kelgan boy folklor asarlarini yozib olish, unga ilmiy baho berish, nashr etish ishiga butun hayotini bag‘ishladi. O‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodi asarlarini jonli ijro sharoitlarida, yozib olishga, nashr etishga va ilmiy o‘rganish ishlariga bosh bo‘ldi”[1.63.].

Darhaqiqat, Hodi Zarifov Ergash shoir aytganidek, xalq baxshilari xalqning bebaho daholari ekanligini olim sifatida payqagan: “Ergashda qofiyalar rang-barang. U radifdan foydalanish bilan barobar qiyin shakllarni ham topib ishlata biladi. Ergash dostonlaridagi vazn ham boshqa dostonlarimizga nisbatan boyroq. Ergash katta talant egasi ekanini uning asarlarida ko‘rish qiyin emas.[112]

Hodi Zarif har bir baxshinig doston aytish usullari xususida alohida to‘xtaladi. Xususan, Ergash shoir ijodida o‘ziga xoslik shuki, u o‘z dostonlarining so‘nggida ustozlarini eslaydi: ”Ulkan xalq san’atkori Ergash Jumanbulbul o‘g‘li ijodida esa, boshqacha manzarani ko‘ramiz. U o‘z dostonlari so‘nggida, garchi ularning nomlarini aytmasa-da, aksariyat hollarda o‘tgan shoirlarni – ustozlarni eslaydi, ular yaratgan yo‘lni, mukammal tartib berilgan usulni – dostonchilik an’anasini alohida ta’kidlaydi:

O‘ylab tursang, ne shoirlar o‘tibdi,  
O‘z vaqtida gapni shaylab ketibdi,  
Bir yo‘l qilib so‘nggi qolgan shoirga  
Jo‘niktirib, yo‘l qip taylab ketibdi .

Bugina emas. Ergash shoir:

Jumandir otamning oti,  
Laqabi bulbul sifati.

Hammalari shoir o‘tgan –  
Yetti pushtiman avlodi , –

deya, yetti ota-bobosi shoir o‘tganligini ham qayd etadi. Hatto “Tarjimai hol” asarida beshinchi otasi Yodgordan boshlab ota-bobolarining har biriga alohida-alohida xarakteristikalar ham beradi . Lekin bunday eslatuv va qaydlarda ustod sifatida otasi Jumanbulbulni ulug‘lash asosiy o‘rin tutadi. Masalan, “Dalli” dostonining oxirida yaxshi va yomon baxshilar haqida baxs etar ekan, Jumanbulbuldan o‘rganganligini, uning mavqeini alohida ta’kidlaydi:

Shu so‘z bari Jumanbulbul so‘zlari,  
Shoir bo‘p izzatman o‘tgan o‘zlari.  
Shu zamonda elu xalqqa mashhur bo‘l,  
Orzu bilan o‘tgan qishu yozlari .[4.367.]

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Bu aytilganlardan Ergash shoir baxshilik san’atiga doir ilohiy tasavvurlardan holi, boshqa dostonchilarga nisbatan mustasno degan xulosa chiqarish yaramaydi. U ilg‘or dostonchi sifatida amalda davom etayotgan ta’lim usullarini yashirmaydi, ustoz-shogird munosabatlarini inkor etmaydi. Shuning uchun ham o‘tgan shoirlarni, xususan, o‘z avlodini asarlari orasida tez-tez eslab turadi. Shu bilan birga u o‘zi mansub dostonchilik muhitining vakili sifatida ilohiy kuchlarning da’vati bilan poetik ilhomning bexosdan paydo bo‘lishi haqidagi tasavvurlardan ham yiroq emas edi. Buni Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi vakillaridan yozib olingan afsonalar bilan bir qatorda uning asarlaridagi ayrim qaydlar ham tasdiqlaydi”.

Xususan, olim Hodi Zarifning bu boradagi ilmiy tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Olimning Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining mahorati va dostonchilikdagi o‘rnini yorituvchi ”Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o‘rni“ mavzusidagi maqolalar to‘plamidahi “Ulkan xalq san’atkori” maqolasi alohida ahamiyatga ega.

Xullas, Ergash Jumanbulbul juda ko‘p xalq dostonlarini o‘z g‘oyaviy-badiiy niyatiga muvofiqlashtirib, repertuaridagi dostonlarning satrlari mag‘ziga singdirib yuborgan. U dostonlarida ko‘pincha qahramon ruhiy holati, kechinmasi, xarakter va qiyofasini yorqin ko‘rsatish maqsadida so‘z o‘yinlarini qo‘llagan. Shoir xalq tilining keng imkoniyatlaridan, tasvir va ifodalaridan shu darajada novatorlik bilan foydalanganiki, uning bu boradagi mahorati hozirgi avlod ijodkorlari uchun ibrat bo‘larlidir.

## Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirzayeva V. O‘zbek folklorshunosligi shakllanishi va taraqqiyotida Hodi Zarifovning o‘rni. Toshkent. 2023.
2. Аникин В.П. Теория фольклора. – Москва: Мир, КДУ, 2007.
3. Жирмунский В.М., Вопросы генезиса и истории эпического сказания об Алпамыше, сб. “Об эпосе “Алпамыш” Ташкент, 1959.
4. Мирзаев Т. Булбул тароналари. - Тошкент: Фан, 1973.
5. Мирзаев Т. Ҳоди Зариф суҳбатлари. Т.-2013.
6. Мирзаев. Т. “Алпомиш” достони вариантларидаги бир хусусият тўғрисида. “Ўзбек халқ ижоди” тўплами, Т. 1967.
7. Ҳ.Зарифов. Улкан шоир, “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали, 1970, 5-сон
8. Ҳ.Зарифов. Ўлмас даҳо. “Шарқ юлдузи” журнали 1968. 12-сон.